

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR LARNING CHET TILINI O'RGANISHIDA IJODIY VAZIFALAR LARNING O'RNI

*Namangan davlat pedagogika instituti  
O'zbek va xorijiy tillar kafedrasи o'qituvchisi  
Og'abek Yuldashev Komiljon o'g'li  
Namangan davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi  
Dadamirzayeva Saidaxon Dilshod qizi*

### ANNOTATSIYA

Kichik yoshdagи bolalarga chet tilini o'rgatish – bu murakkab, ammo nihoyatda muhim jarayon bo'lib, pedagogdan didaktik yondashuv, bolalar psixologiyasini tushunish va interaktiv uslublardan samarali foydalanishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qitishda o'yinli metodlar, ijodiy topshiriqlar, vizual materiallar, rolli o'yinlar va interaktiv texnologiyalar katta ahamiyatga ega. Ta'limga emotsiyonal yondashuv bolaning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol muloqotga undaydi. O'yin orqali bilim berish, darslarda musobaqalarga joy berish, tinglab tushunishga asoslangan topshiriqlar, ko'rgazmali vositalar orqali eslab qolishni kuchaytirish chet tilini muvaffaqiyatlι o'rgatishda muhim omillardir. Shuningdek, o'qituvchining nutq madaniyati, ta'sirchan ifodasi va pedagogik mahorati bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarning diqqat markazini uzoq vaqt ushlab turish mushkul, shuning uchun 20–30 daqiqalik qiziqarli va dinamik mashg'ulotlar muhim sanaladi. Mazkur maqolada aynan ana shu yondashuvlar, metodik usullar va ularning bolalar nutq rivojidagi o'rni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, chet tili o'rgatish, o'yinli metodlar, ijodiy topshiriqlar, interaktiv ta'lim, vizual vositalar, bolalar psixologiyasi, motivatsiya, muloqot kompetensiyasi, o'qituvchi nutqi, rol o'ynash, eshitish orqali o'rganish

### АННОТАЦИЯ

Обучение иностранному языку детей дошкольного возраста требует от педагога не только профессиональной подготовки, но и умения использовать современные педагогические технологии, соответствующие возрастным и психологическим особенностям ребенка. В статье рассматривается значение игровых методов, творческих заданий, ролей, визуальных пособий и интерактивного обучения при преподавании иностранного языка в дошкольных образовательных учреждениях. Эти методы способствуют развитию интереса к языку, улучшают коммуникативные навыки детей и создают позитивную мотивацию к обучению. Также подчеркивается важная роль речи самого преподавателя, его интонации и выразительности в передаче информации. Исследования показывают, что внимание детей ограничено

по времени, поэтому занятия должны быть короткими, яркими и запоминающимися. Представленный в статье педагогический подход способствует формированию устойчивых языковых навыков и речевой активности у детей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, преподавание иностранного языка, игровые методы, творческие задания, визуальные материалы, психология ребенка, интерактивное обучение, мотивация, коммуникативная компетенция, речь преподавателя, ролевые игры, аудирование

## **ABSTRACT**

Teaching a foreign language to preschool children is a multifaceted and highly responsible process that requires teachers to apply age-appropriate strategies, psychological insight, and effective pedagogical tools. This article explores the significance of creative tasks, play-based learning, interactive techniques, and visual aids in early language education. Emphasis is placed on the teacher's role, particularly their speech, tone, and ability to engage children emotionally and intellectually. Research suggests that young learners acquire language best through imitation, play, and repetition within a supportive and stimulating environment. Therefore, using short but dynamic sessions filled with games, role plays, songs, and storytelling is vital. The article argues that integrating language teaching with emotional and cognitive stimulation improves retention, enhances communicative skills, and fosters motivation. This approach not only ensures language acquisition but also contributes to a child's overall personal development and readiness for future education.

**Keywords:** preschool education, foreign language teaching, play-based learning, creative tasks, visual aids, child psychology, interactive learning, motivation, communicative competence, teacher speech, role play, listening comprehension

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tilni erta yoshdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda chet tiliga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, uni ijodiy vazifalar orqali rivojlantirish — ta’lim jarayonining muhim vazifasidir. Psixologik va pedagogik tadbiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy yondashuv orqali o‘rganilgan til bilimlari bolalarda mustahkamroq saqlanadi, shuningdek, muloqot ko‘nikmalari faol shakllanadi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori 1-ilovaga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi”ni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri maktabgacha ta’limni rivojlantirish - ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish va buning uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan.Bugungi kunda chet tillarini bilish kasbiy ta’limning ajralmas qismlardan biriga aylanib bormoqda. Maktabgacha yoshdagи bolalar va chet tili ta’limi xususiyatlari.

1. Maktabgacha yoshdagи bolalar o‘zlari sezmagan holda tilni taqlid va o‘yin orqali o‘rganadilar. Shu sababli bu davrda darslar qat’iy grammatik qoidalarga emas, balki quvnoq, faol o‘yinlar va ijodiy topshiriqlarga asoslangan bo‘lishi zarur.

## 2. Ijodiy vazifalarning turlari

Chet tilini o‘rganishda quyidagi ijodiy vazifalardan foydalanish samaralidir:

Rolli o‘yinlar (role play): Bolalar ingliz yoki boshqa chet tilida do‘kon, maktab, mehmonxona kabi holatlarda suhbat qurishni o‘rganadilar.

Rasmlar asosida hikoya tuzish: Surat ko‘rsatiladi va bola o‘zicha hikoya tuzadi.

Qo‘shiqlar va she’rlar: Ritimli, harakatli she’r va qo‘shiqlar tilni tez o‘zlashtirishga yordam beradi.

Flash-kartalar va pantomima o‘yinlari: Vizual yondashuv va harakat orqali eslab qolish osonlashadi.

Mini-drama yoki teatrlashtirilgan sahna: Bu turdagи faoliyat bolani nafaqat tilga, balki ifoda vositalariga ham o‘rgatadi.

## 3. Ijodiy vazifalarning o‘rni va ta’siri

Ijodiy topshiriqlar:

Chet tilini o‘rganish jarayonini qiziqarli qiladi;

So‘z boyligini kengaytiradi;

Bolaning mustaqil fikrlashini va o‘z fikrini chet tilida ifoda qilishini rag‘batlantiradi;

Matn asosida muloqotga kirishish va sahnalashtirish orqali eslab qolish darajasini oshiradi;

Til o‘rganishga ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi.

Yoshlarimiz ta’lim va tarbiyasining birinchi bosqichi maktabgacha ta’limdir.

Bolalarni ongli va bilimli qilib tarbiyalashda maktabgacha ta’lim muassasalari muhim o‘rin tutadi. Yosh avlodga ta’lim berishda kattalardan farqli ravishda zamonaviy usullardan foydalanish zarur. Bolalar o‘rtasidagi musobaqalar juda muhim. Chunki bolalarda sog’lom raqobatni yoshligidan shakllantirish kerak. Bolalarning tilga qiziqishi shu yo‘l bilan ham ortishi mumkin. Xitoyliklarning fikricha, barcha inson manfaatlari raqobat orqali keladi. Buni shu yo‘l orqali atrof-muhitni o‘rganishga, raqobat orqali raqiblarini bilihga o‘rganadigan bolalar timsolida ko‘rishimiz mumkin. Bolalar, berilgan vaziyatni tushunish va o‘yinlarda g’alaba qozonish orqali osonroq o‘rganadilar. Bu orqali o‘rgangan ma’lumotlarini mustahkamlaydilar. Bir tomondan, tilda ifodalangan mazmun bolalar hayoti, boshqa tomondanesa bolalar bilan olib boriladigan muloqot kundalik hayotimiz bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Biz taklif qilayotgan tadbirlar yoki vazifalar qiziqarli va muhim bo‘lishi kerak. Har bir bolani chet tilini o‘rganish jarayonida harakat qilishga undash zarur hisoblanadi. Bolalar tezda o‘rganadilar, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun nutqni bir necha marta takrorlash, bir mavzu bo‘yicha o‘yinlar yoki tarqatma materiallar orqali darslar tashkil qilish bolalarni o‘rganayotgan narsalarini eslab qolishiga yordam beradi. Takrorlash chet tilini o‘rgatishning ajralmas qismi bo‘ishi kerak.

Bolalarga chet tilini muvaffaqiyatli o'rgatish o'qituvchidan turli xildagi usullardan foydalanishni talab qiladi.

Yana bir misol, bolalarga ingliz tilini o'rgatishda "listening", ya'ni eshittirishlar qilish va bu bolaga qanday ta'sir qilishini kuzatish kerak. Agar bu eshittirishlar ularga tushunarsiz bo'lsa, unda osonroqlarini tanlay bilish kerak. Masalan, turli xildagi qo'shiqlar bolalarni ham raqsga tushib, ham kuylashiga yordam beradi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yarim soatdan ko'proq vaqt davomida bolalarning e'tiborini jalb qilish mumkin emas. 20 daqiqa yoki yarim soat o'tgach, bola avtomatik ravishda chalg'iydi. Shuning uchun bolalarni o'yin orqali o'qitish usuli ham juda samarali. Misol uchun, agar bolalarga rasmlar berilsa va inglizcha nomlarini topsa, qiziqarli bo'ladi. Buning uchun bizga hayvonlarning rasmlari bo'lgan kartalar yoki varaqlar kerak. O'qituvchi hayvonlarning nomlarini aytishga yordam beradi. Aksariyat bolalarda ko'rgan narsalarini eslab qolish qobiliyati yaxshi rivojlanganligi sababli, bu usul juda samarali bo'lishi mumkin. Kattalardan asosiy farqi shundaki, bolalar ingliz tilini o'qimaydilar, o'rganadilar, o'ynaydilar. Ya'ni, ular o'qitiladi albatta, lekin ular bunday deb o'ylamaydilar. Bu yoshda ularni biror narsani o'rganishga majburlash befoyda - bolalarda beixtiyor yodlash ustunlik qiladi, ya'ni ijobjiy his-tuyg'ular zarur. Va agar o'yinlarda bo'lmasa, ularni qayerdan olish kerak? Yosh bolalarga chet tilini samarali o'rgatishning yana bir usuli - bu rolli o'yin. O'qituvchi ba'zi ma'lumotlarni, masalan, hayvonlar yoki qushlarning nomlarini o'rgatishda bolalarga rol o'ynatishi yoki uni sahnalashtirishi kerak. Masalan: bir o'quvchi itning vovillashini, mushukning miyovlashini va sherning na'rasini ko'rsatsa, boshqa o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi kerak.

Xulosa qilib aytganda ijodiy vazifalar chet tilini o'rganishda bolalarning emotsional va intellektual faolligini ta'minlaydi. Shuningdek, bu yondashuv orqali bolalarning tilga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy muloqotga tayyorligi oshadi. Shuning uchun chet tili darslarini ijodiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish maktabgacha ta'lim muassasalarining ustuvor vazifasiga aylanishi lozim. Bolalarda til o'rganishga qiziqish uyg'ota olish o'qituvchidan yuksak malaka va mahorat talab qiladi. Bundan tashqari, kichik yoshdag'i o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda tashkil etilgan darslar bolalarning ko'proq bilim olishiga, o'qituvchilarning samarali ishlashiga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukarimova N. Maktabgacha yoshdag'i bolalarga chet tilini o'rgatish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.
2. G'ulomova M., Teshaboyeva D. Ingliz tilini erta yoshda o'rgatishning psixologik-pedagogik asoslari. – Samarqand, 2021.
3. Nurmatova D.X. Ijodiy o'yinlar orqali chet tilini o'rgatish. // Maktabgacha ta'lim, 2020, №4.

4. Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
- 5 .O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-sonli qarori, 2021 yil 6 may.  
"Chet tillarini o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida."
6. Komiljon o‘g, O. A. Y. (2024). METHODS OF EFFECTIVE DEVELOPMENT OF LISTENING SKILLS IN STUDENTS WHO DO NOT MAJOR IN A FOREIGN LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 554-558.